TARIX

UO‘K: 94:37(575. 1) (043. 3) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a85**

XX ASRNING 20-YILLARIDA OZARBAYJONDA TA’LIM OLGAN TURKISTONLIK YOSHLAR TARIXIDAN

HISTORY OF STUDENTS FROM TURKESTAN WHO STUDIED IN AZAERBAYJAN IN 20th OF XX CENTURY

ИСТОРИЯ СТУДЕНТОВ ИЗ ТУРКЕСТАНА КОТОРЫЕ ПОЛУЧИЛИ ОБРАЗОВАНИЕ В АЗЕРБАЙЖАНЕ В 20-ГОДЫ XX ВЕКА

Yo‘ldashev Aabduvali Abdumutalibovich[1]

[1]Yo‘ldashev Aabduvali Abdumutalibovich - O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti ilimiy xodimi tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqola Turkiston yoshlarining XX asrning 20-yillarida Ozarbayjonning oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida tahsil olish tarixiga bag‘ishlangan. Bu davrda turkistonlik yoshlar Germaniya, Rossiya hamda Ozarbayjonning markaziy shaharlaridagi ta’lim muassasalariga malakali mutaxassislar tayyorlash uchun yuborildi. Maqolada arxiv hujjatlari va Turkiston milliy matbuotida nashr etilgan Boku va Ganja shaharlarida ta’lim olayotgan o‘zbek yoshlariga oid materiallar tahlil qilingan.

Аннотатсия

Данная статья посвящена истории процесса обучения туркестанской молодежи в средних и высших учебных заведениях Азербайджана в 20-е годы XX века. В этот период туркестанская молодежь направлялась в Германию, Россию и в центральные города Азербайджана с целью подготовки специалистов. В данной статье рассмотрены архивные документы и статьи, опубликованные в Национальной печати Туркестана, связанные со студентами, обучавшимися в Баку и Гяндже.

Abstract

This article is dedicated to the history of studying process by Turkestan youngsters in middle and high education centres of Ozarbayjan in the 20 s of the XX century. In this period Turkestan youngsters were sent to Germany, Russian and to the central cities of Ozarbayjan with the aim of preparing good specialists. In this article the archive documents and the articles which were published in National press of Turkestan related to the students who studied in Baku and Ganja were discussed.

Kalit so‘zlar: *xorijiy ta’lim, O‘zbek bilim komissiyasi, “Ko‘mak” uyushmasi, Boku, Turkiston o‘quvchilar qo‘mitasi, “Yosh qalamkashlar” devoriy gazetasi, “Og‘amali” texnikumi.*

Ключевые слова: *зарубежное образование, Узбекская комиссия знаний, союз «Кумак», Баку, «Туркестанский студенческий комитет», стенгазета «Ёш каламкашлар», техникум «Огамали».*

Key words: *foreign education, the Uzbek knowledge commission, union "Ko‘mak", Baku, “Turkistan student committee”, “Yosh qalamkashlar” wallnewspaper, “Ogamali” technical school.*

KIRISH

Turkiston o‘lkasi bilan Ozarbayjonning aloqalari uzoq tarixga borib taqaladi. Ayniqsa, savdo va madaniy aloqalar doimo davom etgan. Rossiya imperiyasining mustamlaka sharoiti bo‘lishiga qaramay, ushbu aloqalarning yangi qirralari ochilib bordi. Masalan, Ozarbajon teatar san’atining Turkistonda keng namoyish etila boshlanishi, ozarbayjonlik san’at ustalari va ziyolilari bilan Turkiston jadidlari o‘rtasidagi aloqalarni yanada kuchaytirdi. Imperiya tuzumi qulatilib, 1917-yil oktyabr to‘ntarilishidan so‘ng ijtimoiy siyosiy fikrlarning keng yoyilishi, milliy davlatchilik uchun kurash, mustamlaka istibdodidan qutulib, istiqlolga erishish yo‘lidagi harakatlarida Ozarbayjon ilg‘or ziyolilari bilan aloqalar o‘ziga xos ahamiyat kasb etdi. Toshkentda nashr etilgan “Ulug‘ Turkiston” gazetasining 1917-yil dekabr oyi sonida Ozarbayjonning “Milliy marshi”[1] bosilishi ham Turkiston milliy ziyolilari ma’naviy-siyosiy ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. O‘z navbatida Turkiya va Erondagi inqilobiy harakatlar Ozarbayjon xalqining madaniy uyg‘onishiga ta’sirini o‘tkazgan. Ozarbayjon o‘lkasida zamonaviy teatr, matbuot, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalari vijudga keldi. Urf-odat, an’analar va e’tiqodning yaqinligi Turkiston va Ozarbayjon xalqlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarning yanada mustahkamladi. Bu davrda Turkistonda boshlang‘ich va o‘rta maktablarda islohotlar

amalga oshirilgan bo‘lib, zamonaga mos milliy kadrlar tayyorlash uchun turli sohalardagi oliy ta’lim muassasalariga ehtiyoj bor edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI METODLAR

Milliy kadrlar tayyorlash masalasi Turkiston mintaqasida jadidchilik harakati bilan uzviy ravishda shakillanib bordi. Jadid namoyandalari Turkistonning taraqqiyoti va kelajagi yo‘lida oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarida milliy mutaxassislar tayyorlashni asosiy o‘ringa qo‘ydilar. Mavzuga oid manbalarning asosiy qismi arxiv hujjatlari va jadid ziyolilari tomonidan yaratilgan adabiyotlar hamda XX asr boshlarida yaratilgan milliy matbuot sahifalarida jamlangan. Ayniqsa milliy matbuot sahifalarida turkitonlik yoshlarning xorijda ta’lim olishi tarixiga oid ko‘plab maqolalarni uchratish mumkin. Ularda Germaniya, Rossiyaning markaziy shaharlarida yoshlarning tahsiliga doir ma’lumotlar bilan birga Ozarbayjonning Baku va Ganja shaharlariga borgan yoshlarning hayoti, ta’limi, iqtisodiy ahvoli yoritilgan maqolalarni uchratish mumkin. Ushbu masalaning ayrim jihatlari Asqar Quliev, Sherali Turdiev, Sirojiddin Ahmad, Bahrom Irzaev, Marhabo Qo‘chqorova, Shomil Husayn o‘g‘li kabi adabiyotshunos, san’atshunos, tarixchi olimlar tomonida o‘rganilgan. Masalan, Sh. Turdiev tomonida XX asrning birinchi choragida Ozarbayjon va Turkiston o‘lkasi o‘rtasidagi madaniy aloqalar, uning samarasi o‘laroq teatr sohasidagi o‘zgarishlar, Ozarbayjonda o‘qigan bir qator yoshlarning O‘zbekistonga qaytib olib borgan faoliyati yoritib berilgan.

NATIJALAR

Ilmiy muammo bo‘yicha erishilgan natijalar quydagilardan iborat bo‘lgan: XX asrning 20-yillaridagi ikki xalq o‘rtasidagi madaniy aloqalarning samarasi Turkistonda teatr, san’atning rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy birlashmalarning yuzaga kelishi va milliy manfaatlar uchun kurashning kuchayiga olib keldi. Turkiston taraqqiyoti yo‘lida turli sohalarda yoshlarni o‘qitish uchun Ozarbayjonga o‘zbek yoshlari yuborildi. Ularning soni 1926-yilga qadar yil sayin ortib bordi. Egallagan sohalari bo‘yicha mutaxassis sifatida vatanga qaytib mamlakat taraqqiyoti uchun xizmat qildilar. Ammo bu jarayonda sovet hukumatining mafkuraviy siyosati ularning erkin faoliyat yuritishga yo‘l bermadi. Bolsheviklar hukumati bu yoshlardan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanishga intildilar.

MUHOKAMA

XX asrning 20-yillaridan boshlab Turkistonnning taraqqiyoti uchun milliy kadrlarni tayyorlash masalasi nafaqat milliy ziyolilar, balki Turkiston Avtanom Sovet Respublikasi (TASSR)ning muhim masalalaridan biri sifatida qaraldi. Maorif xalq komissarligi qoshidagi “O‘zbek bilim xayati” va milliy ziyolilar tomonidan tashkil etilgan “Ko‘mak” uyushmasi (1922 yil may) yordamida iqtidorli yoshlarni xorij mamlakatlariga yuborish boshlandi. O‘sha davrda Ozorbayjonning markaziy shaharlaridagi o‘rta va oliy ta’lim muassasalariga o‘zbek yoshlaridan yuborilib turli sohalarda kadrlar tayyorlash choralarini ko‘rildi.

Turkiston ASSR Xalq Maorif Komisarligi tomonidan 1922-yilda yozilgan maktubda Ozarbayjonning maorif nozirligidan o‘zbek yoshlaridan 20 nafarini Bokudagi pedagogika instituti va musulmon seminariyasida borib ta’lim olishiga ruxsat so‘ragan[2]. Ozarbayjon hukumati bu murojaatnomaga ijobiy javob qaytargan. “Ko‘mak” uyushmasi tomonidan 1922-yilda bir guruh yonlarni Ozarbayjonda ta’lim olish uchun yuborildi.

O‘zbekiston Milliy arxivi Maorif komisarligiga oid 1922-yil hujjatlarida pedagogika instituti va musulmon seminariyasiga yuborilgan talabalar ro‘yhati keltirilgan. Unda Xo‘jand, Andijon, Jalolobod va Toshkentlik bir guruh yoshlar Bokudagi musulmon seminariyasida ta’lim olayotganligiga oid ma’lumot aks etgan. Hujjatda ana shu ta’lim muassasasida o‘qiyotgan o‘quvchi yoshlar ismi va yashash joyi haqida ham ma’lumot keltirilgan [3].

Ushbu arxivining “Markazi ijroya komiteti”ga oid fond hujjatlarida esa Ozarbayjonda ta’lim olayotgan o‘zbek yoshlari haqida ma’lumotlar uchraydi. Xususan, oliy pedagogika institutida 6 talaba, Boku o‘g‘il bolalar o‘quv seminariyasiga 12, Ganja o‘g‘il bolalar o‘quv seminariyasida 9, Boku qizlar o‘quv seminariyasida 2 talaba ta’lim olayotganligi haqidagi ma’lumot keltirilgan [4]. Bu kabi ma’lumotlar Turkiston milliy matbuotida ham keng yoritib borilgan. Undagi ma’lumotlar arxiv hujjatlarini yanada boyitadi. Matbuot sahifalarida o‘zbek yoshlarining ta’limi, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti, madaniy faoliyati va talabalar tomonidan yozilgan maqolalar haqidagi ma’lumotlarni olish mumkin.

TARIX

Toshkentda nashr etilgan “Turkiston” gazetasining 1922-yil 24-sentyabrdagi “Ozarbayjon elchisi keldi” nomli maqolada Buxoroga kelgan Ozarbayjon elchisi Naim Narimonov Buxoro Xalq Nozirlar sho‘rosi Sadri Otaxo‘jaev va chet el ishlari noziri Abdurauf Fitrat tomonidan qabul qilingani yoziladi[5]. Bu uchrashuv sovet xokimiyati hukmronligiga qaramay ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yanada taraqqiy etishi yo‘lidagi qadamlardan hisoblanadi.

Dastlabki yillarda Bokuga ta’lim olish uchun borgan talabalar o‘zlarining maqolalari bilan milliy matbuotda ishtirok etib, erkin fikr va mulohazalari bilan turli masalalarni muhokama qilganliklarini ko‘rish mumkin. Zarafshon gazetasidagi “O‘ylash kerak” nomli maqola ushbu gazetaning 53 sonida bosilgan “O‘zgalar ta’siriga berilmasun” maqolasiga javoban yozilganligini ko‘rish mumkin. Maqolada “Birov” imzoli muallif fikrlari Boku dorulmuallimin talabasi Abdulrahim Solih o‘g‘li tomonidan tanqid ostiga olinadi.

“O‘zgalar ta’siriga berilmasun” maqolasida chetda o‘qib kelgan yoshlarning o‘z tillariga rus va usmonlicha so‘zlarini aralashtirib so‘zlashlaridan nolib muallif o‘z mulohazalarini yozadi. Maqola yakunida xulosa sifatida “...xalqparvar va ortlariga xizmat qilish tilagi bilan chetga borib o‘qug‘uchi yosh talantlarimizg‘a yuz o‘girib darrov o‘zgalar ta’siriga berilmasdan o‘z amal va g‘oyalarig‘a erishguncha o‘qishg‘a davom qilishlarini o‘tinardim” – deya tamomlaydi [6].

Abdulrahim Solih o‘g‘li “O‘zgalar ta’siriga berilmasun” maqolasi bilan tanishib, maqola muallifi ko‘targan muammo dolzarb ekanligiga to‘xtaladi. Lekin, hali bu mavzuning mavridi emasligiga urg‘u beradi: “Birov” o‘rtoq haqiqatdan katta o‘runli mavzuni olgan bo‘lsa ham o‘zining yangi, yosh qalam bo‘lg‘anidanmi, yo esa ishning tagini o‘ylamaganidanmi, vaqtsiz bir narsani yozib o‘zini o‘zbek adabiyotining buzulib ketishidan qo‘rqg‘onin shoshilish bilan izhor qiladur” [7]. Maqola davomida muallif chet ellarda o‘qiyotgan yoshlarni o‘z adabiyotini boshqalar adabiyotidan keyinda qolganligini, qorong‘i muhitdagi maktabdan chiqib borgan mamlakatining tili va shevasini o‘rganishga majbur bo‘lgan bir talabaning harakatini noto‘g‘ri talqin qilish va uni tanqidga olish xorijda o‘qiyotgan talabalarga to‘g‘ri saboq o‘rniga aks ta’sir qilib o‘qshga bo‘lgan qiziqishlarini yo‘qolishiga sabab bo‘lishini yozadi.

Xorijga yoshlarni o‘qishga yuborishda mahalliy ziyolilarning harakatlari ham katta bo‘ldi. Xo‘janddagi 12-sonli maktab muallimi Muhammad Amin Avaz Muhammad o‘g‘li ana shunday maorif xodimlaridan bo‘lib, 18 yillik faoliyati davomida chekka hududda, moddiy ta’minotning zaifligiga qaramay Xo‘janddan Samarqand bilimyurtiga 10 ga yaqin Toshkant o‘zbek bilimyurtiga 12, Boku dorulmualliminiga 7 nafar o‘quvchi tayyorlab o‘qishga yuboradi [8].

“Bokudagi o‘quvchilarimiz” sarlovhali “Turkiston” gazetasidagi maqolada 1924 yilda Boku dorulmualliminni 4 ta turkistonlik talaba bitirib chiqqanligi va Bokudagi harbiy va ta’lim-tarbiya maktablarida ushbu yilda 44 ta o‘zbek yigitlari o‘qiganligi haqida axborot beriladi [9].

“Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1926 yil 17 fevral sonidagi maqolada Turkiston talabalarining 1926 yilgacha O‘zbekistondan Ozarbayjonga borib ta’lim olishlari sarhisobiga to‘xtalingan. Maqola keng qamrovli bo‘lib, unda 1922-yil Turkistondan Ozarbayjonga o‘qish uchun 13 talaba yuborilganligi yoziladi. Keyingi 1923-yilda esa talabalarning soni 60 nafarga yetdi. 1924 yilga kelib talabalarning soni 110 taga, 1925-1926 yillarda 150 taga yetganligi keltirib o‘tiladi[10].

Shuningdek, ushbu maqolada muallif talabalarning ta’minoti, O‘zbekistonning qaysi hududlaridan o‘quvchi yuborilganliklari va milliy tarkibiga ham to‘xtalib o‘tgan. Ularning moddiy rag‘batlantish yuzasidan: “Bu talabalardan 100 tasi O‘zbekiston tomonidan ajratilgan nafaqadan foydalanadilar. Talabalarning har biriga 35 so‘mdan nafaqa berilgan. Stipendiya oluvchi talabalardan 15 nafari qizlar bo‘lgan. Samarqand eski shahar vaqf sho‘basi qarmog‘ida talabalarning yana 30 tasi bo‘lib, bularning 14 tasiga vaqfdan nafaqa ajratilgan. Qolgan talabalardan 20 tasi harbiy maktablarda o‘qib yurib nafaqa olganlar”, – deb ma’lumot keltirilagan [10].

Turkiston ASSRdan borgan yoshlar hukumat tomonidan ajratilgan stipendiya va o‘z yaqinlari yordami bilan o‘qiganlar. Yoshlarning ta’lim olishiga milliy ziyolilar ham bee’tibor bo‘lmagan. Ular turli teatr va tadbir kechalari tashkil etib ulardan tushgan mablag‘ni talabalar uchun yig‘ib borganlar. “Ko‘kaldosh” madrasasida 1926-yil 14-avgust kuni Maskva, Leningrad va Bokuda o‘qiyotgan talabalar foydasiga juda katta hozirlik bilan “Bazm kechasi” o‘tkazilishi haqidagi “Qizil O‘zbekiston” gazetasiga berilgan e’lon ana shunday tadbirlardan biri bo‘lgan [11].

Ozarbayjonga yuborilgan talabalar dastlab “Turkiston o‘quvchilar qo‘mitasi”(1923) keyinchalik bu komita “O‘zbek o‘quvchilar qo‘mitasi”(1925) nomi bilan ish yuritadi. Qo‘mita Ozarbayjonda o‘qiyotgan talabalarning o‘quv va yashash sharoitlarini yo‘lga qo‘yish ishlarini olib borgan. Qo‘mita tashkil qilingan dastlabki kunlardan turkistonlik talabalarni yotoqxona bilan ta’minlash maqsadida Ozarbayjon Maorif Komissarligidan yer olinadi. Yotoqxona qurish ishlari 1924-yilda yakunlanib 30 kishilik umumiy talabalar turargohi ochiladi.

Ammo shuni ham aytish joizki, ushbu qurilgan yotoqxona Ozarbayjonda o‘qiyotgan turkistonlik talabalarning juda ozchiligining ehtiyojini qondira olgan. Chunki, 1924-yilda Ozarbayjonning turli ta’lim muassasalarida yuzdan ortiq turkistonlik yoshlar o‘qigan bo‘lsa, yotoqxona ularning juda ham ozchiligiga yetgan. Qolgan o‘quvchilar turli sharoitlarda, ya’ni iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib yashab ta’lim olishga majbur bo‘lganlar.

Ali Tangriberdi muallifligidagi “Bokuda o‘zbek o‘quvchilari” nomli maqolada Bokudagi “O‘zbekiston o‘quvchilari qo‘mitasi” yangi hay’ati va unga O‘zbekiston ilmiy sho‘rosi raisi Otajon Xoshimov Bokuga borganida belgilab bergan bir necha vazifalari to‘g‘risida xabar beriladi. Maqolada shuningdek “O‘zbekiston o‘quvchilari qo‘mitasi” Boku yoshlar qo‘mitasi bilan aloqalarini yo‘lga qo‘yganliklari haqida ham ma’lumot beriladi [12].

Bokudagi “O‘zbekiston o‘quvchilari qo‘mitasi” o‘z faoliyatini talabalarning ta’lim jarayonidagi ijtimoiy va ma’naviy ahvolini yaxshilashga dars jarayonidagi nutqining o‘sishi, ta’lim-tarbiyasidagi o‘zgarishlarni ijobiy hal etilishida muhim o‘rin tutgan. 1926-yil 6-oktiyabrdagi qo‘mitaning yalpi yig‘ilishida O‘zbek matbuoti to‘g‘risida munozara tashkil etiladi. Ozarbayjonga sayohat uchun kelgan turkistonlik ziyolilardan Ziyo Said ushbu yig‘ilishda o‘z ma’ruzasi bilan ishtirok etadi. Bu yig‘ilishdagi matbuot masalalariga oid bildirilgan fikrlar “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 260-sonida chop etiladi [13].

Bokudagi “O‘zbek o‘quvchilar qo‘mitasi”ning madaniy-maorif sho‘basi faoliyati ham alohida ahamiyatga ega. Ular o‘z harakatlari bilan bir kichik qiroatxona (kitob o‘quv zali) va uning yonida o‘quvchilarning ijtimoiy, ilmiy va ma’naviy ehtiyojini ta’min qiluvchi kutubxona tashkil qiladilar. Shu bilan birga, o‘quvchilar nutqini oshirish, bilimini kuchaytirish niyatida refarat o‘qish, o‘lkani tanish, adabiy to‘garaklar tuzgan edilar. Shuningdek, qo‘mita va talabalarning ijtimoiy ishlari, kamchiliklar hamda yutuqlarini ko‘rsatuvchi oyna sifatida “Yosh qalamlar” nomli devoriy gazeta chiqarganlar. Ushbu devoriy gazeta 15 kunda bir marta chiqarilgan [14. b. 15].

1926-yilda Turkistondan yuborilgan 2 talaba dorulfununda, Oliy pedagogika institutida 10, ishchi fakultetlarda 21, ziroat texnikumlarida 2, dorulmuallimin va pedagogika texnikumlarida 62, harbiy maktablarda 20, namuna maktablarida 6 talaba, tayyorlov maktablarida esa 11 talaba o‘qiyotgani yoziladi [10].

Keyingi yillarda Ozarbayjonda o‘qigan talabalarning ko‘pchiligi respublikaning chekka hududlarigacha borib faoliyat yuritayotganligi haqida o‘sha davr milliy matbuot sahifalarida tilga olinadi. Hususan, “Maorif va o‘qituvchi” jurnalining 1929-yilgi 5-sonida: “...bulturgi 19 nafar bitirib chiqqanlar, O‘zbekistonning uzoq burchaklarida ishlab turganlari va shuningdek, bu yil ham 23 nafar turli maktablarni bitirish oldida bo‘lgan bitiruvchilarni taqdim qilamizki bu ham o‘zbek o‘quvchilarining muvofaqiyatidir”, – deb yoziladi [14. b. 15]. Ularning ijtimoiy ahvoli va milliy tarkibi jadval ko‘rinishida keltirilgan.

Matbuot sahifalarida Ozarbayjonda o‘qiyotgan talabalarning ayrimlari ustidan tanqidiy maqola va habarlar bosilganligini ko‘rish mumkin. Ismoil Akrom muallifligidagi “Mikroblar yo‘rg‘alamoqda” nomli maqola shu mavzuga oid bo‘lib, maqolada Bokudagi “Narimonov” texnikumining talabalari Umarali Azimov, Nasim Rashidiy hamda “Og‘amali” texnikumining tolibi Mutal Qosimov faoliyati tanqid ostiga olinadi [15]. Ushbu talabalar ayni sovet hukumati kuchaygan 30-yillar boshlarida boy va sovet hukumatining mafkurasiga qarshi kayfiyatdagi kishilar avlodlari, milliy ziyolilar tarbiyasini olgan millatparvar yoshlar bo‘lgani uchun tanqidga olingan.

XX asrning 20-yillarida turkistonlik yoshlarining Ozarbayjon ta’lim muassasalarida ta’lim olishi yil sayin ortib bordi. Ular mamlakat uchun zarur sohalar pedagogika, qishloq ho‘jaligi, iqtisodiy sohalar hamda san’at va madaniyat sohasida ta’lim oldilar. Ushbu yoshlar mamlakat taraqqiyotida o‘z bilim va amaliy faoliyati bilan ishtirok etdilar. Ularning faoliyati va taqdirini arhiv hujjatlari va matbuot va boshqa manbalar asosida tadqiq etish tarix fanidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

TARIX

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, milliy matbuot sahifalari va arxiv hujjatlari asosida XX asrning 20-yillarida Ozarbayjonda ta’lim olgan Turkistonlik yoshlar tahsili va faoliyatiga oid ma’lumotlarni bilish mumkin. Ozarbayjon ta’lim muassasalarini tamomlagan yoshlar ta’lim olgan sohalari bo‘yicha milliy kadr sifatida shakllanib, O‘zbekiston taraqqiyotida turli sohalarda faoliyat olib bordilar. Ulardan yetuk pedagog, madaniyat va san’at arboblari, olimlar hamda harbiy mutaxassislar yetishib chiqqan edi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Milliy marsh // Ulug‘ Turkiston. 1917 yil 31 dekabr. (National marsh//Great Turkestan. 1917 year December 31. Newspaper.)
2. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA). 34-yig‘majild, 1-ro‘yxat, 1332-ish, 88 varaq. (National Archive of Uzbekistan. 34-collection, 1-list, 1332-case, 88-page.)
3. O‘zMA. 34-yig‘majild, 1-ro‘yxat, 1332-ish, 80 varaq. (National Archive of Uzbekistan. 34-collection, 1-list, 1332-case, 80-page.)
4. O‘zMA. 17-yig‘majild, 1-ro‘yxat, 1096-ish, 1-varaq. (National Archive of Uzbekistan. 17-collection, 1-list, 1096-case, 1-page.)
5. Ozarbayjon elchisi keldi // Turkiston. – 1922 yil 24 sentyabr. (Azarbayjanian ambassador visited//Turkestan. – 1922 year September 24. Newspaper.)
6. Birov. O‘zgalar ta’siriga berilmasa edi // Zarafshon. 1923 yil 10 iyun. (Birov. If didn’t down to influence of strangers//Zarafshan. 1923 year jun 10. Newspaper.)
7. Abdulrahim Solig‘ o‘g‘li. O‘ylash kerak // Zarafshon. 1923 yil 21 iyun. (Abdulrakhim Solik ugli. Have think//Zarafshan. 1923 year jun 10. Newspaper.)
8. Rajab Z. Chin xizmat // Turkiston. 1923 yil 19 yanvar. (Rajab Z. The real service//Turkestan. 1923 year January 19. Newspaper.)
9. Bokudagi o‘quvchilarimiz // Turkiston. 1924 yil 14 aprel. (Our students in Baku//Turkestan. 1924 year april 14. Newspaper.)
10. Yo‘ldosh M. Ozorboyjonda O‘zbekiston o‘quvchilari // Qizil O‘zbekiston. 1926 yil 17 fevral. (Yuldash M. Uzbekistan students in Azerbayjan//The red Uzbekistan. 1926 year February 17. Newspaper.)
11. E’lon // Qizil O‘zbekiston. 1926 yil 13 avgust. (The announcement//The red Uzbekistan. 1926 august 13. Newspaper.)
12. Ali Tangriberdi. Bokuda o‘zbek o‘quvchilari // Qizil O‘zbekiston. 1926 yil 22 dekabr. (Ali Tangriberdi. Uzbek srudents in Baku//The red Uzbekistan. 1926 year December 22. Newspaper.)
13. O‘zbek vaqtli matbuoti to‘g‘risida Boku o‘zbek studentlarining ovozi // Qizil O‘zbekiston. 1926 yil 12 noyabr. (The voice of students from Uzbekistan of Baku about Uzbek press//The red Uzbekistan. 1926 year November 12. Newspaper.)
14. Muzayyan. Bokuda o‘zbekiston yigitlari // Maorif va o‘qituvchi. 1929 yil, 5-son. – B. 15. (Muzayyan. Boys in Baku from Uzbekistan//Education and teacher. 1929 year volume 5. – P. 15. Magazine.)
15. Ismoil Akrom. Mikroblar yo‘rg‘alamoqda // Qizil O‘zbekiston. 1930 yil 1 oktyabr. (Ismail Akram. Microbes are acting//The red Uzbekistan. 1930 year October 1. Newspaper.)